

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

METODIKA

2023 Vol. 4 (2)

www.metodika.tsuull.uz

MUNDARIJA

GLOBAL TA'LIM MUAMMOLARI: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR

Boqijon To‘xliyev

Alisher Navoiy pedagogik hamda metodik qarashlarining yana bir qirrasи haqida 5

Abdulhay Sobirov

O‘zbek tilining buguni va kelajagi bo‘yicha mulohazalar 20

Gulshan Asilova

Til ta’limida kasbiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish 30

Gulnoza Ahmedova

O‘zbek tili darslarida nutqiy muloqot madaniyatini oshirishdagi faollik tamoyili 42

Saodat Kambarova

Adabiyotni so‘z san’ati sifatida san’atning boshqa turlari bilan qiyoslab o‘rganish usullari 54

Maxmuda Yuldasheva

Evristik yondashuvning ustivor jihatlari 67

TIL TA’LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Tursunay Yusupova

O‘quvchilarda inshoning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinishiga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish 77

Munira Shodmonova

Ona tili va adabiyot o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari 86

Klaraxon Mavlonova

8-sinf ona tili darslarida matn tuzilishini o‘rgatish mazmuni 99

Shohruh Abdiraimov

Matnni o‘qib tushunish ko‘nikmasini baholash mezonlarini ishlab chiqish asoslari 109

Sanobar Kuldasheva

Ona tili ta’limida multimediali usullardan foydalanish metodikasi .. 119

Nilufar Berdiyeva

Ona tilini o‘rganish bo‘yicha qilingan tadqiqotlarni til ta’limida qo‘llash. 128

Namoz Rasulov

O‘zbek tilida so‘roq ifodalovchi lingvistik birliklar 139

Feruza Sharopova

O‘quvchilarning o‘qib tushunishko‘nikmasini rivojlantirishga oida tajriba-lar tahlili..... 151

ADABIYOT O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Gulnoza Jurayeva

O'zbek bolalar she'riyati – ma'rifiy va estetik tarbiya quroli sifatida....161

Maxfuza Tuychiyeva

Badiiy tafakkur va adabiy talqin mutanosibligi175

Iroda Ishonxanova

“Scaffolding” usuli – o‘quvchilarning mustaqil faoliyati asoslaridan biri sifatida184

Mahliyo Elboyeva

O'zbek bolalar adabiyotini o'qitishda pedagogik texnologiyalar va metodlarning o'ziga xos xususiyatlari196

Jamoliddin Nurmuhhammadov

O‘quvchida tahliliy va yozma ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun “Book review” strategiyasini tuzish metodikasi206

Sharofat Abdurahmonova

Aka-uka Grimmlarning “Botir tikuvchi” ertagini kulturologik yondashuv asosida o‘qitish tamoyillari213

Moxidilxon Abdullayeva

5-6-sinf adabiyot darslari uchun rasmi li lug‘atlar yaratish muammo-lari.....222

TIL TA'LIMIDA KASBIY MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Gulshan Asilova⁵

Annotatsiya

Zamonaviy mutaxassisning kasbiy kompetensiyasida uning samarali muloqot yuritish layoqati muhim o'rinni tutadi. Muloqot ishtirokchilarining ushbu jarayonga qay darajada tayyor ekanligi ta'lim davomida muayyan zarur ko'nikmalarining shakllantirilishiga bog'liq. Til o'qitish metodikasi rivojlanishining dastlabki bosqichlarida tilni nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirishning ko'plab metodlari qo'llanganligi ma'lum. Biroq bugungi kunda tilni ehtiyoj asosida o'rganish talabi ortib bormoqda. Kasbiy ta'limda tillarni o'zlashtirish jarayoni muayyan sohaning terminologiyasini o'zlashtirish, ish faoliyatida turli vaziyatlarda og'zaki va yozma muloqotni amalga oshirish, soha faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini tahlil qila olishni o'rganishni taqozo qiladi. Bu esa til ta'limida didaktik materiallarni kasbiy muloqotga tayyorlashga qaratish zarurligini tasdiqlaydi. Biroq bugungi kunda til ta'limida qo'llanayotgan o'quv-metodik adabiyotlar, tilni o'rgatuvchi dasturlarning aksariyati bu ehtiyojni qondirmaydi. Maqolada kasbiy muloqot kompetensiyasi, uning turlari, kasbiy nutqning monologik va dialogik shakllarini rivojlantirish usullari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *til, til ta'limi, kommunikativ kompetensiya, muloqot, kasbiy muloqot, muloqot turlari, mutaxassislik tili.*

Kirish

Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat a'zolarining asosiy muloqot vositasidir. Insonlar ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy, kasbiy-sohaviy ehtiyojlari yuzasidan muntazam muloqotda bo'ladilar. Globallashuv davrida madaniyatlararo muloqotda axborot-ma'lumotlardan foydalanish, ularni o'z ehtiyoji doirasida boshqara olish turli mamlakatlar bilan faol ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bugungi kunda bizni qurshab olgan axborot olami har bir insonni ta'lim jarayonida hamda kundalik faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur ma'lumotlarni izlab topish, ulardan o'zi uchun keraklisini ajratib olish va qo'llashga undaydi. Bu jarayonda bir necha tilni bilish va ulardan samarali foydalanishning ahamiyati oshib borayotgani ma'lum.

⁵ Asilova Gulshan Asadovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: gulshanasilova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8462-7120

Iqtibos uchun: Asilova, G. 2023. "Til ta'limida kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish". O'zbekiston: til va madaniyat. 4 [2] : 30 - 41

Asosiy qism

Mutaxassisning kasbiy muloqotni samarali amalga oshirishi fikrini o'zgalarga tushunarli tarzda yetkazib bera olishi, o'zganing fikrini tez va to'g'ri tushunishi, unga munosabat bildira olishi, munozaraga kiri-sha olishida ko'rindi. Shu bois ta'limda shakllantirilishi zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalardan biri kommunikativ kompetensiyadir.

Kommunikativ kompetensiya (*communicative competence*) termini ilk bor amerikalik olim D. Xayms tadqiqotlarida qo'llangan. Ushbu kompetensiya tilning ma'lum bir vaziyatda o'rinni ekanligini his qilishni anglatadi. Bunda fikrni tushunish hamda unga axboriy va ijtimoiy mazmun berish uchun qoidalarni qo'llash kommunikativ kompetensiya shakllanganligini bildiradi [Hymes. 1972: 272]. D. Xaymsning ishlari kommunikativ kompetensiyani ona tilida rivojlantirishga bag'ishlangan. Ikkinchi tilni o'rgatishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari esa XX asrning 80-yillarda M.Kanali va M. Svayn tadqiqotlarida aks etgan [Canale. 1980: 263].

Kasbiy ta'limda kommunikativ kompetensiya sohada o'zaro muloqot yuritishga qaratiladi, chunki kasbiy muloqot jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlaydi. Mutaxassisning kommunikativ kompetensiyasi uning ona tilida yoki o'zi yashayotgan davlatning rasmiy tilida, yoxud xorijiy tillarda muloqot jarayonida quyidagi layoqatlarida namoyon bo'ladi:

- fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qilish;
- savollarni to'g'ri qo'yish hamda berilgan savollarga mantiqan to'g'ri javob berish;
- muloqot vaziyatiga moslasha olish;
- muloqot jarayonida muomala madaniyatiga rioxcha qilish;
- suhabdoshining fikrini hurmat qilgan holda o'zining nuqtayi nazarini himoya qilish;
- suhabdoshini ishontira olish;
- ziddiyatlari vaziyatlarda o'zini o'zi boshqara olish;
- muammo va nizolarni bartaraf qilish uchun samarali qarorlarni qabul qilish va boshqalar.

A. Nayn ta'biriga ko'ra, "... muvaffaqiyatga erishish uchun muloqot qilishni o'rganmoq lozim" [Найн. 1997: 8]. Bu fikrning tasdig'ini xorijiy amaliy tajribalarda, xususan, D. Karnegi asarlarida ko'rishimiz mumkin [Карнеги. 2016: 98-121]. Ularda samarali muloqot yuritish malakasini egallagan xodimlar kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonganligiga ko'plab misollar keltirilgan.

Ko'rindiki, kasbiy muloqotning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati ni-hoyatda muhim. Ish yuzasidan tashkilotlar vakillari, jismoniy shaxslar, xorijiy hamkorlar, hamkasblar, rahbarlar va qo'l ostidagi xodimlar bilan kundalik muloqot yuritish zaruriyati ma'lum darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni taqozo etadi.

Kasbiy ehtiyoj yuzasidan muomala-muloqot qilish deyarli barcha sohalarda zarur, biroq ularning ayrimlarida muloqot g'oyat muhim o'rin tutadi. Jumladan, shifokorlar, pedagoglar, psixologlar, bank xizmatchi-

lari, soliq xodimlari, biznes vakillari, jurnalistlar, blogerlar, san'atkorlar va boshqa soha vakillarining faoliyati nafaqat hamkasblari bilan muloqot qilish, balki yoshi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi, kasbi, fe'l-atvori har xil bo'lgan ko'plab insonlar bilan muomalada bo'lishni taqozo etadi. Shu bois mazkur sohalarda xodimlarning nutq madaniyati, muloqot yuritish malakasini shakkllantirish va muntazam rivojlantirib borishga yuqori tabalbar qo'yildi.

Muloqot insoniyat paydo bo'lganidan beri unga hamrohlik qilib kelgan bo'lsa-da, uning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini ilmiy o'rganishga XX asr boshida e'tibor qaratilgan. Shu tariqa 1940-yillarda AQShda ilk bor ijtimoiy fanlarning bir sohasi sifatida muloqot kafedrasи tashkil qilingan.

"Muloqot" so'zi arab tilidan o'zlashtirilgan bo'lib, "uchrashish, ko'rishish"; "qabul qilish", "uchrashuv"; "musohaba" (suhbatlashish, hamsuhbatlik, suhbat) ma'nolarini bildiradi [Ўзбек тилининг изохли луғати. 2020: 635]. "Muloqot" tushunchasi murakkab jarayonni anglatadi va turli fanlar tizimida o'rganiladi. Muloqotning ilmiy-psixologik adabiyotlarda berilgan ko'plab ta'riflarini umumlashtirib, uni *ikki yoki undan ortiq shaxsning bilishga intilish yoki baho, munosabat bildirish maqsadida o'zaro axborot almashish jarayoni* deya talqin qilish mumkin. Muloqot yoki muomala jarayonida insonlar o'rtasida axborot almashuvi yuz berishi natijasida yangi fikr paydo bo'lishini Bernard Shou quyidagicha ta'riflagan: "Agar menda bitta olma va sizda ham shuncha olma bo'lib, o'zaro almashsak, sizda ham, menda ham bittadan olma qoladi, agar har birimizda shaxsiy fikr bo'lsa va o'zaro almashsak, unda har birimizda ikkitadan g'oya bo'ladi" [Коран. 1988: 149-150]. Demak, muloqotni *o'zaro fikr almashinuv munosabatlaridan iborat bo'lgan ijtimoiy jarayon* deb atash mumkin. Shu bilan birga, muloqot jarayonida boshqa ijtimoiy munosabatlardan farqli o'laroq, so'zlashuvchilarining ruhiy-psixologik jihatlari ham namoyon bo'ladi. Quyidagi ta'rif buni tasdiqlaydi: "Muloqot ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Shaxslar o'zaro munosabatga kirishar ekan, aloqaning eng muhim vositalaridan biri sifatida tilga mu-rojaat qiladilar. Muloqotning yana bir muhim tomoni shundaki, munosabatga kirishuvchilar muomala jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki xatti-harakatlar bilan ham axborot ayirboshlaydilar. Muloqot jarayoni shaxslarning qiziqishlari, dunyoqarashi, muomala madaniyatiga ham bog'liq bo'ladi, chunki shaxslardagi o'zaro muloqot bu tabiiy ehtiyojdir" [Душанов, Фарфиев. 2010: 78]. Bu esa muloqotning nafaqat lisoniy, balki paralingvistik (imo-ishora, qo'l harakatlari) yordamida, boshqacha aytganda verbal va noverbal tarzda amalga oshirilishini tasdiqlaydi.

Muloqot jarayonining ko'p qirraliligi uning maqsad va vazifalaridan kelib chiqadigan ko'plab turlarini yuzaga keltiradi. Jumladan, muloqot mazmuni va yo'nalishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- ijtimoiy (keng jamoatchilikka qaratilgan va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadigan muloqot);
- guruh doirasidagi (guruh a'zolarining o'zaro hamkorlikdagi faoli-

yatni amalga oshirish jarayoni, ya'ni mehnat yoki ta'lim jarayoni yoxud muayyan topshiriqni bajarish jarayonidagi muloqoti);

• shaxsiy (bir shaxsning boshqa shaxs bilan o'zaro muammolarini hal etish maqsadida o'rnatgan munosabatlari);

• pedagogik (pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasida sodir bo'ladigan murakkab o'zaro ta'sir jarayoni);

• kasbiy (ma'lum bir faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muloqot).

Muloqotning sanab o'tilgan barcha turlari shaxsning o'quv va ish faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orasida *kasbiy muloqot* ijtimoiy-siyosiy jihatdan muhim vazifani bajarishi bilan alohida ahamiyatlidir, chunki unda muloqot subyektlarining umumiyl manfaatlari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda muayyan vazifa (ishlab chiqarish, ilmiy-uslubiy, tijorat ishi va sh.k.) bajariladi. Ingliz tilida keng qo'llanadigan "*business communication*", rus tilida "*"деловое общение"*" deb yuritiladigan tushunchaning o'zbek tilida "*"kasbiy muloqot"*" deb atalishi maqsadga muvofiq [Асиева. 2017].

Rus tilidagi "*деловое общение*" atamasiga quyidagicha ta'riflar berilgan: "bu muloqotning shunday turki, uning maqsadi faoliyatning kasbiy, tijorat va notijorat sohalarida ma'lumot-axborot almashishdan iborat. Bunday muloqot chog'ida muloqot ishtirokchilarining har biri, avvalambor, o'z kasbi uchun dolzarb bo'lgan masalalarni yechishga harakat qiladi" [Азимов, Щукин. 2009: 57]; "ijtimoiy-huquqiy va iqtisodiy munosabatlar sohasidagi kommunikativ predmet-maqsadli va asosan kasbiy faoliyat" [Колтунова. 2000: 16].

Ilmiy adabiyotlarda kasbiy muloqot turlari uning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turlicha tasniflanadi. Jumladan, N. Baranovaning tadqiqotida quyidagi tasnifni ko'ramiz:

1. *Og'zaki va yozma* kasbiy muloqot. Ularning orasida nafaqat ifoda shakli, balki uslubiy jihatdan ham sezilarli farqlar mavjud. Rasmiy yozma nutq rasmiy-idoraviy uslubga oid bo'lsa, og'zaki nutq turli uslublarning xususiyatlarini aks ettiradi. Xizmat xatlarining barcha turlari, shartnomalar, bayonnomalar va ko'plab ijtimoiy-huquqiy hujjatlar yozma nutqda ifodalanadi. Rasmiy muzokaralar, uchrashuvlar, maslahatlarda og'zaki nutqdan foydalaniladi.

2. *Dialogik* va *monologik* kasbiy muloqot. Ushbu nutq turlari ham nutqning maqsadi hamda sintaktik xususiyatlariga qarab farqlanadi. Dialogik muloqot asosan o'zaro munosabatlarda, monologik muloqot ma'ruba, hisobot va ommaviy chiqishlarda namoyon bo'ladi.

3. *Shaxslararo* va *ommaviy* kasbiy muloqot. Shaxslararo muloqot aksariyat hollarda norasmiy tarzda, tanish va notanish shaxslar bilan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonida vujudga keldi. Jumladan, bunga telefon orqali suhbat, elektron pochta yoki xat orqali muloqot qilish misol bo'la oladi. Ommaviy muloqot esa ham rasmiy (masalan, majlislardagi muloqot), ham norasmiy shaklda (gazeta va jurnallar, radio va televiedeniye, Internet orqali muloqot qilish) bo'lishi mumkin.

4. *Bevosita* va *bilvosita* kasbiy muloqot. Bevosita muloqot to'g'ridan to'g'ri muloqot deb ham yuritiladi, uning ishtirokchilari sun'iy muloqot

vositalaridan foydalanmaydilar. Nutq so‘zlayotgan shaxs o‘z nutqining suhbatdoshiga qanday ta’sir o‘tkazayotganini ko‘rib turadi. Bilvosita mu-loqotda texnika vositalari, hujjatlar, uchinchiligi (vositachi) shaxslardan foy-dalaniladi. Bunga telefon orqali muloqot, shuningdek, qonun hujjatlari va shartnomalar vositasida muloqot yuritish misol bo‘la oladi.

5. *Yuzma-yuz* va *masofali* kasbiy muloqot. Yuzma-yuz muloqot nutq ohangiga e’tibor kuchliligi, qisqa hamda vaqt jihatdan chegaralanganligi, unda noverbal muloqot vositalarini qo‘llash mumkinligi bilan farqlanadi. Masofaviy muloqotda telefon, pochta va faks jo‘natmalari, internet yor-damida yuboriladigan xabarlar, radioaloqa va videoaloqa vositalaridan foydalaniadi [Баранова. 2008: 11].

T. Persikova esa kasbiy muloqotni vertikal va gorizontal turlarga ajratadi. *Vertikal* kasbiy muloqotda axborot yuqoridaan quyiga (ya’ni tashkilotning ierarxiya bo‘yicha tuzilishiga muvofiq, ma’muriyatdan ijrochiga) yoki aksincha, quyidan yuqoriga (rahbarning xodimlaridan ax-borot olish ehtiyoji bo‘lganda) yuboriladi. *Gorizontal* muloqotda tashki-lotda bir bo‘lim ichida yoki turli bo‘limlarda bir xil maqomni egallagan xodimlar o‘rtasida ish yuzasidan ma’lumot almashinuvni ko‘zda tutiladi [Персикова. 2002: 20]. Ushbu tasnif kasbiy muloqotni amalga oshirish bosqichlari va amal qilish doirasini nazarda tutadi.

Bugungi kunda barcha davlat tashkilotlarida axborot almashinuvining, xususan, hujjatlashtirilgan shaklda to‘g‘ri va sifatlari yuritilishi, qabul qilingan qarolarning o‘z muddatida ijrochilarga yetib borishi va bajarilishining ta‘minlanishi mazkur tashkilotlar faoliyati samaradorli-gining asosiy omili hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, vertikal va gori-zontal kasbiy muloqot turlari hozirgi kunda hujjatlashtirilgan shakldagi axborotlar almashinuvining xususiyatlarini belgilashda va davlat idoralari-da hujjat aylanuvini boshqarish tizimlarini tashkillashtirish hamda ras-miylashtirishda ijtimoiy-siyosiy jihatdan muhim amaliy ahamiyatga ega.

Albatta, ko‘rsatib o‘tilgan kasbiy muloqot turlarining xususiyatlarini bilish mutaxassisning ham kommunikativ, ham kasbiy kompetensiyalari shakllanishida katta ahamiyatga ega. Bu xususiyatlar bo‘lajak mutaxassislarda muloqotning aynan soha bilan bog‘liq turlarini, o‘ziga xos xususiyatlarini maqsadli o‘rganish ehtiyojini keltirib chiqaradi.

N. Muradova chet tillarni o‘rgatish jarayonida kasbiy muloqotga yo‘naltirish xususida shunday deydi: “Xorijiy tilda kasbga yo‘naltirilgan muloqot muloqotning maxsus turi bo‘lib hisoblanadi, chunki uni amalga oshirish uchun maxsus bilimlar zarur. U mutaxassisning kompetentligi bilan belgilanadi hamda amaliy faoliyatning ma’lum bir turiga xos maq-sadlar, mazmun va xorijiy tildagi tushunarli vositalar bilan ta‘minlanadi. Demak, nofilologik oliy ta‘lim muassasasida kasbga yo‘naltirilgan mulo-qotga o‘rgatish zarur” [Мурадова. 2013: 823].

Talabalarda kasbiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish ta‘lim muhitida amalga oshirilgani bois, u tabiiy kasbiy muloqot muhitidan farq qiladi. Bu esa kasbga yo‘naltirilgan muloqotga o‘rgatishning samarali usullarini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bunda kasbiy leksika va terminologiyani o‘rganishning o‘zi yetarli emas,

biroq ulardan kasbiy muloqot jarayonida to‘g‘ri foydalanish, hamkasbulari va atrofdagilar bilan maqsadli muloqot yuritishni o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish muammolari qator tadtiqotlarda tahvilga tortilgan. Xususan, M. Koltunova iqtisodiy sohalar mutaxassislarining muloqot kompetensiyasini uch muhim qismiga ajratadi: hujjatlar bilan ishlash, shaxslararo suhbat va omma oldida nutq so‘zlash. Shundan kelib chiqqan holda, mutaxassisning muloqot kompetensiyasini shakllantirishda quyidagi malakalarga e’tibor qaratish muhimligini ta’kidlaydi:

- kasbiy muloqotning maqsad va vazifalarini ifodalay olish;
- muloqot predmetini tahlil qilish, muhokama qila olish;
- muloqotni boshqarish, uning borishini ta’minlay olish;
- muloqot maqsadlariga erishish uchun odob-axloq me’yorlariga rioya qilish;
- tanlangan strategiyani amalga oshirishda turli usullarni qo‘llay olish;
- suhbat, ish yuzasidan muloqot, bahs, munozara, mubohasa, dialog, muhokama, muzokara, tortishuv, majlis, rasmiy muzokaralarni olib bora olish;
- isbotlash va asoslash, dalillash, rad etish, baho bera olish;
- fikrni o‘zgacha ifodalash, tezis shakliga keltirish, ta’riflash, umumlashtirish va xulosalash, nominalizatsiya, verbalizatsiya (hissiyotlarni so‘z bilan ta’riflash), avtorizatsiya (ma’lum bir shaxs yoki guruhga huquqlar berish) usullarini qo‘llay olish;
- og‘zaki axborotni yozma axborotga, timsolli axborotni lisoniy axborotga aylantirishni bilish;
- rasmiy ish uslubining asosiy janrlarini bilish (xizmat xati, faks xabari, shartnomaga, telefon orqali so‘zlashuv, ishga aloqador suhbat, majlislar);
- nutq texnikasini egallash;
- istiora va notiqlik usullarini o‘z o‘rnida ishlata olish [Колтунова. 2000: 29].

Qayd etib o‘tilgan malakaviy ko‘rsatkichlar insonlar bilan bevosita muloqot qilinadigan barcha sohalarda zarur. Demak, kasbga yo‘naltirilgan ta’limda ushbu malakalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi kerak.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi talabada o‘rganilayotgan tilda kasbiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishi uchun ushbu soha tilini bilishi zarur. Buning uchun til o‘qitadigan mutaxassisdan talabalar o‘rganayotgan soha terminologiyasini o‘zlashtirish, o‘quv materiallarini tuzishda maxsus terminlar lug‘atlaridan foydalanish, sohaga oid qonunchilik tili va maxsus adabiyotlarni o‘rganish, sohaning rasmiy ish hujjatlari va ularning xususiyatlarini yaxshi bilish talab qilinadi. Bu, ayniqsa, leksikasi sezilarli farqlanadigan sohalarning tili, ya’ni mutaxassislik tiliga tegishli. “Mutaxassislik (ixtisoslik) tili – umumxalq tilining o‘zi, faqat u inson faoliyatining u yoki bu sohasi doirasi bilan chegaralangan bo‘ladi”

[Барышева. 1988: 133]. Biroq, bugungi kunga kelib bu chegaralarni avvalgidek qat’iy belgilab bo‘lmaydi, chunki ixtisosliklarning turlari kundan kunga qanchalik ko‘payib borayotgan bo‘lsa, ularning tili ham jadal rivojlanmoqda.

Ayrim tadqiqotlarda kasbiy nutq ixtisosiy nutq deb ataladi: “*Ixtisosiy nutq* – fan sohalariga doir masalalarning mohiyatini bayon qilish, aniq va ravshan ta’riflar berish, mantiqan yaxlit, ishonarli xulosalar chiqarilishi bilan ajralib turadi. Nutqning bu shakli mantiqan to‘g‘ri, mushohadalar va dalillarga boy, qurilishi jihatdan bir butunligi bilan ajralib turadi” [Дадажонова. 1995: 13]. Demak, kasbiy nutq ish faoliyatining turli vaziyatlarida va ko‘rinishlarida mutaxassislik tilida erkin og‘zaki va yozma muloqot qilish layoqatini namoyish qiladi.

Ma’lumki, bugun til ta’limida kommunikativ tamoyilning ustunligi bois asosiy e’tibor og‘zaki nutqni o‘stirishga qaratiladi. Og‘zaki nutqning ham asosan kundalik so‘zlashuv uslubidagi qoliplari qo‘llanib, rasmiy og‘zaki muloqotga yetarli darajada o‘rin ajratilmaydi. Biroq muloqotning bu turisiz mutaxassisning rasmiy nutqini samarali rivojlantirishga erishish qiyin. M.Qaraxodjayeva o‘z tadqiqotida bu boradagi muammolarga e’tibor qaratadi: “Ta’lim rus tilida olib boriladigan guruh talabalarining o‘zbekcha nutqini ixtisoslik so‘zları bilan boyitish birmuncha murakkab kechadi. Avvalo, ularning oddiy muomala nutqini shakllantirish zarurati tug‘iladi. Shundan so‘nggina mutaxassislikka oid terminlar ustida ishlashga, ular ishtirokidagi nutqiy muomalani shakllantirishga kirishish maqsadga muvofiq bo‘ladi” [Караходжаева. 2002: 5].

Aytib o‘tilganlar nutqiy muloqot malakalarining shakllanish jarayonidagi to‘siqlar bo‘lib, ular ta’limning ilk bosqichlarida namoyon bo‘ladi. Biroq, ta’lim jarayoni ilmiy va metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsagina kasbiy muloqot ko‘nikmalarini hosil qilish mumkin. Samarali kasbiy muloqotga erishishning turli usullari og‘zaki va yozma nutqni barobar rivojlantirish, natijada kasbiy sohada erkin og‘zaki va yozma muloqot qilishga qaratiladi. Buni amalga oshirish uchun talabalarning kasbiy nutq ko‘nikmalarini mashg‘ulotlarda quyidagi sxema bo‘yicha rivojlantirish tavsiya etiladi.



Xulosa

Ko'rindaniki, bo'lajak mutaxassislarning turli vaziyatlarda kasbiy muloqotni amalga oshirish layoqatini rivojlantirish til ta'limining bosh maqsadi bo'lishi kerak. Demak, buning uchun oliy ta'lim muassasalarida talabalarning og'zaki va yozma monologik va dialogik nutqini muayyan izchillikda rivojlantirib borishga qaratilgan tizim ishlab chiqiladi. Maxsus matnlar va ish hujjatlari, ular bilan ishlashga qaratilgan topshiriqlar va mashqlar tizimini, jumladan, kundalik rasmiy muloqot ko'nikmalari hamda muammoli vaziyatlarni muloqot vositalari yordamida hal qilishga o'rgatadigan turli metodlarni amaliy mashg'ulotlarda qo'llash talabalarni o'zlashtirilayotgan tilda kasbiy muloqot yuritishga o'rgatish jarayonini takomillashtiradi. Bunday yondashuv oliy ta'lim muassasalarini uchun tulziladigan o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlari, shuningdek, til o'rgatuvchi dasturlarda yetakchi o'rin tutishi kerak.

Adabiyotlar:

Hymes, D. 1972. On Communicative Competence. In J. B. Pride and J. Holmes — (eds.), *Sociolinguistics*. Harmondsworth: Penguin. – Pp. 269-293.

- Canale, M. 1980. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing / M. Canale & M. Swaine // Applied Linguistics, №1. – Pp. 47-54.
- Найн, А. Я. 1997. Культура делового общения. – Челябинск. – 256 с.
- Карнеги, Д. 2016. Мансаб пиллапояларидан қандай күтарилиш мумкин. – Тошкент: Янги аср авлоди. – 272 б.
- Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2002. 5 жилдли. – Тошкент: “ЎзМЭ”
- Давлат илмий нашриёти, 2-жилд. – 672 б.
- Коган, М. С. 1988. Мир общения. – Москва: Политиздат. – 320с.
- Душанов, Р. Х.; Фарфиев Ё. А. 2010. Касбий психология. – Тошкент:
- ИИВ Академияси. – 302 б.
- Аси洛ва, Г. А. 2017. Божхона ва солиқ йўналишлари талабаларнинг —давлат тилида касбий мулоқот юритиш компетенциясини ривожлантириш (рус гурухлари мисолида): Пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент: ТДПУ. – 276 б.
- Азимов, Э. Г.; Щукин, А. Н. 2009. Новый словарь методических тер
- минов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: ИКАР. – 448 с.
- Колтунова, М. В. 2000. Язык и деловое общение. Нормы. Риторика.
- Этикет. – Москва: Экономика. – 152 с.
- Барanova, Н. А. 2008. Основы формирования дискурсивной комптен-
- ции студентов при обучении иноязычному профессионально-ориентированному общению: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – С.-Петербург. – 20 с.
- Персикова, Т. Н. 2002. Межкультурная коммуникация и корпоративн
- культура / Учебное пособие. – Москва: Логос. – 224 с.
- Мурадова, Н. Т. 2013. Обучение профессиональнно-ориентированному общению на иностранном языке студентов неязыковых вузов //
- Молодой ученый. – Москва. – №11. – С. 822-824.
- Барышева, И. В. 1988. К вопросу о лексико-синтаксических конструк
- циях в языке специальности // Функциональная стилистика и лингводидактика. – Москва: Изд. Моск. ун-та. – 158 с.
- Дадажонова, Н. М. 1995. Ўзбек тили таълими жараёнида олий ўқув
- юртларининг нофилологик ихтисосликларида ўқийдиган талабаларнинг нутки устида ишлаш методикаси: Пед. фан. ном. ... дисс. – Фарғона: ФарДУ. – 130 б.
- Қараходжаева, М. X. 2002. Нофилологик гуруҳ талабаларининг касбий — нуткини феъл асосида шакллантириш методикаси: Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент: ЎзМУ. – 156 б.

FORMATION OF PROFESSIONAL COMMUNICATION SKILLS IN LANGUAGE EDUCATION

Gulshan A. Asilova⁶

Abstract. In the professional competence of a modern specialist, his ability to conduct effective communication plays an important role. To what extent the participants in the dialogue are ready for this process depends on the formation of certain necessary skills during education. In the early stages of the development of language teaching methodology, it is known that many methods of mastering the language, both theoretical and practical, were used. Today, however, the demand for learning a language on the basis of need is increasing. The process of mastering languages in professional education assumes the ability to master the terminology of this field, carry out oral and written communication in various situations in business activities, analyze legislation regulating the activities in the field. This confirms the need to focus on preparing didactic materials for professional communication in language education. However, the teaching and methodical literature used in language education today, as well as most of the language learning programs, do not properly meet this need. The article discusses the competence of professional communication, its types and methods for the development of monological and dialogical forms of professional speech.

Key words: *language, language education, communicative competence, communication, professional communication, types of communication, specialty language.*

References

- Hymes, D. 1972. On Communicative Competence. In J. B. Pride and J. Holmes (eds.), *Sociolinguistics*. Harmondsworth: Penguin. – Pp. 269-293.
- Canale, M. 1980. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing / M. Canale & M. Swaine // *Applied Linguistics*, №1. – Pp. 47-54.
- Najn, A. Ya. 1997. *Kul'tura delovogo obsheniya*. – Chelyabinsk. – 256 p.
- Karnegi, D. 2016. *Mansab pillapoyalaridan qanday ko'tarilish mumkin*. – Toshkent: Yangi asr avlodni. – 272 p.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. 2002. 5 jiddli. – Toshkent: "O'zME", Vol. 2. – 672 p.
- Kogan, M. S. 1988. *Mir obshcheniya*. – Moskow: Politizdat. – 320 p.

⁶ Gulshan A. Asilova – Doktor of Pedagogy (DSc), professor, University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: gulshanasilova@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8462-7120

SCOPUS ID: 57211624977

For citation: Asilova, G. 2023. "Formation of professional communication skills in language education". *Uzbekistan: language and culture*. 4[2] : 30-41

- Dushanov, R. H.; Farfiyev Y. A. 2010. Kasbij psixologiya. – Toshkent: IIV Akademiyasi. – 302 p.
- Asilova, G. A. 2017. Bojxona va soliq yo‘nalishlari talabalarining davlat tilida kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish (rus guruhlari misolida): Ped. fan. dokt. ... diss. – Toshkent: TDPU. – 276 p.
- Azimov, E. G.; Shchukin, A. N. 2009. Novyj slovar’ metodicheskikh terminov i ponyatij (teoriya i praktika obucheniya yazykam). – Moskow: IKAR. – 448 p.
- Koltunova, M. V. 2000. Yazyk i delovoe obshenie. Normy. Ritorika. Etiket. – Moskow: Ekonomika. – 152 p.
- Persikova, T. N. 2002. Mezhkul’turnaya kommunikaciya i korporativnaya kul’tura / Uchebnoe posobie. – Moskow: Logos. – 224 p.
- Baranova, N. A. 2008. Osnovy formirovaniya diskursivnoj kompetencii studentov pri obuchenii inoyazychnomu professional’no-orientirovannomu obshcheniyu: Avtoref. dis. ... kand. ped. nauk. – S.-Peterburg. – 20 p.
- Muradova, N. T. 2013. Obuchenie professional’no-orientirovannomu obsheniyu na inostrannom yazyke studentov neyazykovyh vuzov // Molodoj uchenyj. – Moskow. – №11. – Pp. 822-824.
- Barysheva, I. V. 1988. K voprosu o leksiko-sintaksicheskikh konstrukciyah v yazyke special’nosti // Funkcional’naya stilistika i lingvodidaktika. – Moskow: Izd. Mosk. un-ta. – 158 p.
- Dadajonova, N. M. 1995. O‘zbek tili ta’limi jarayonida oliv o‘quv yurtlarining nofilologik ihtisosliklarida o‘qiydigan talabalarning nutqi usida ishlash metodikasi: Ped. fan. nom. ... dis. – Farg‘ona: FarDU. – 130 p.
- Qaraxodjayeva, M. H. 2002. Nofilologik guruh talabalarining kasbiy nutqini fe’l asosida shakllantirish metodikasi: Ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent: O‘zMU. – 156 p.

Adabiyotlar:

- Hymes, D. 1972. On Communicative Competence. In J. B. Pride and J. Holmes (eds.), Sociolinguistics. Harmondsworth: Penguin. – Pp. 269-293.
- Canale, M. 1980. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing / M. Canale & M. Swaine // Applied Linguistics, №1. – Pp. 47-54.
- Найн, А. Я. 1997. Культура делового общения. – Челябинск. – 256 с.
- Карнеги, Д. 2016. Мансаб пиллапояларидан қандай кўтарилиш мумкин. – Тошкент: Янги аср авлоди. – 272 б.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2002. 5 жилдли. – Тошкент: “ЎзМЭ” давлат илмий нашриёти, 2-жилд. – 672 б.
- Коган, М. С. 1988. Мир общения. – Москва: Политиздат. – 320с.
- Душанов, Р. Х.; Фарфиев Ё. А. 2010. Касбий психология. – Ташкент: ИИВ Академияси. – 302 б.
- Асильова, Г. А. 2017. Божхона ва солик йўналишлари талabalarinning давлат тилида касбий муллоқот юритиш компетенциясини ривожлантириш (рус гурухлари мисолида): Пед. фан. докт. ... дисс. – Ташкент: ТДПУ. – 276 б.

- Азимов, Э. Г.; Щукин, А. Н. 2009. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: ИКАР. – 448 с.
- Колтунова, М. В. 2000. Язык и деловое общение. Нормы. Риторика. Этикет. – Москва: Экономика. – 152 с.
- Баранова, Н. А. 2008. Основы формирования дискурсивной компетенции студентов при обучении иноязычному профессионально-ориентированному общению: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – С.-Петербург. – 20 с.
- Персикова, Т. Н. 2002. Межкультурная коммуникация и корпоративная культура / Учебное пособие. – Москва: Логос. – 224 с.
- Мурадова, Н. Т. 2013. Обучение профессионально-ориентированному общению на иностранном языке студентов неязыковых вузов // Молодой ученый. – Москва. – №11. – С. 822-824.
- Барышева, И. В. 1988. К вопросу о лексико-синтаксических конструкциях в языке специальности // Функциональная стилистика и лингводидактика. – Москва: Изд. Моск. ун-та. – 158 с.
- Дадажонова, Н. М. 1995. Ўзбек тили таълими жараёнида олий ўқув юртларининг ноғилологик ихтисосликларида ўқийдиган талабаларнинг нутқи устида ишлаш методикаси: Пед. фан. ном. ... дисс. – Фарғона: ФарДУ. – 130 б.
- Қараходжаева, М. Х. 2002. Ноғилологик гурӯҳ талабаларининг касбий нутқини феъл асосида шакллантириш методикаси: Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент: ЎзМУ. – 156 б.